

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исмолиддинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незаймакин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Respublikamizda kambag'allikni qisqartirish uchun yaratilayotgan imtiyozlar va ularning samarasi

Turaboyeva Kimiyoxon O'razbekovna, Boymurodova Xosiyat Boboxon qizi

Создаваемые льготы по сокращению бедности в нашей Республике и их эффективность

Турабоева Кимийёхон Уразбековна, Боймуродова Хосият Бобохон кызы

Benefits being created to reduce poverty in our Republic and their effectiveness

Turaboeva Kimiyokhon Urazbekovna, Boymurodova Khosiyat Bobokhon kizi

Received: May 17, 2025 Revised: May 19, 2025 ■ Accepted: May 20, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya.** Maqolada hozirgi kunda dolzarb muammoga aylanayotgan mavzu "Kambag'allikni qisqartirish" mavzusi tahlil qilingan. Kambag'allikni qisqartirish maqsadida yurtimizda tatbiq etilayotgan chora tadbirlar, xususan soliq va moliyaviy imtiyozlar va ularning samarasi tahlil qilingan.
- **Kalit so'zlar.** Kambag'allik darajasini aniqlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlar, raqamli kuzatuv tizimi
- **Абстрактный.** В статье анализируется тема «Сокращение бедности», которая в настоящее время становится актуальной. Проанализированы меры, реализуемые в нашей стране по сокращению бедности, в частности налоговые и финансовые стимулы, а также их эффективность.
- **Ключевые слова.** Оценка уровня бедности, создание рабочих мест, налоговые льготы, льготные кредиты, цифровая система отслеживания
- **Abstract.** The article analyzes the topic of "Poverty Reduction", which is currently becoming relevant. The measures implemented in our country to reduce poverty, in particular tax and financial incentives, as well as their effectiveness are analyzed.
- **Key words.** Poverty assessment, job creation, tax incentives, preferential loans, digital tracking system

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, kambag'allikni qisqartirish va fuqarolarning turmush darajasini oshirish borasida qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy adolat va barqaror taraqqiyot

tamoyillari asosida mamlakatda kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan strategik islohotlar izchil davom ettirilmoqda. O'zbekistonning hududiy iqtisodiy holati va kambag'allik darajasi mamlakatning umumiy iqtisodiy rivojlanishiga, resurslarni taqsimlashga va aholining turmush sharoitlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Hududiy rivojlanishdagi tengsizlik va kambag'allik darajasidagi farqlar iqtisodiyotning samarali ishlashiga, ijtimoiy barqarorlikka va siyosiy barqarorlikka

ta'sir o'tkazishi mumkin. Shu bilan birga, kambag'allik darajasi hududlarning rivojlanishi va ijtimoiy farovonligini belgilovchi muhim indikatorlardan biri hisoblanadi.

Hukumat tomonidan 2021-yildan boshlab kambag'allik darajasini aniqlash, tahlil qilish va uni bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgan yagona yondashuv shakllantirildi. Bu jarayonda quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda:

1. Ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish.

Kam ta'minlangan oilalarga davlat tomonidan moddiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy nafaqalar va subsidiyalar ajratish mexanizmlari raqamlashtirildi va shaffoflik ta'minlandi.

2. Bandlikni ta'minlash va tadbirkorlikni rag'batlantirish.

Aholining daromad manbalarini oshirish maqsadida kasb-hunar o'rganish markazlari tashkil etildi, o'zini o'zi band qilish istagida bo'lgan fuqarolarga subsidiya, kredit va grantlar ajratilmoqda.

3. Ayollar va yoshlar bandligini oshirish.

Ayollar va yoshlar uchun alohida dasturlar orqali ularning iqtisodiy faolligini kuchaytirish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlari yaratildi.

Davlat tomonidan kambag'allikni qisqartirish maqsadida bir qator imtiyozlar joriy qilinmoqda. Ular:

Soliq imtiyozlari. Kam ta'minlangan fuqarolar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat turlari uchun soliq yengilliklari berilmoqda.

Arzon kreditlar. Aholining kam daromadli qatlamlariga o'z tadbirkorligini boshlash uchun past foizli kreditlar ajratilmoqda.

Kasbga bepul o'qitish. Mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha bepul o'quv kurslari tashkil etilib, ishsiz fuqarolarning malakasi oshirilmoqda.

Uy-joy bilan ta'minlash. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar uchun arzon uy-joylar qurilmoqda va ularni xarid qilishda davlat tomonidan imtiyozli ipoteka dasturlari taklif etilmoqda.

O'zbekistonning iqtisodiy holati, uning hududiy bo'linishi asosida farqlanadi. Mamlakatning iqtisodiy holati, resurslarga ega bo'lishi, sanoat va qishloq xo'jaligi rivojlanishi, shuningdek, infratuzilma va transport tarmoqlarining o'zaro bog'liqligi bilan belgilanadi. O'zbekistonning geografik joylashuvi, tabiiy resurslar va ijtimoiy imkoniyatlar hududiy iqtisodiy holatga katta ta'sir ko'rsatadi. Kambag'allikni qisqartirish uchun O'zbekiston hukumati iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishga qaratilgan bir qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Masalan, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, yangi ish o'rinlari yaratish va ta'lim tizimini yaxshilash orqali kambag'allikni qisqartirish maqsad qilingan. Shuningdek, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan soliq imtiyozlari, grantlar va boshqa

rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar kambag'allikni kamaytirishga yordam bermoqda. Bu siyosatlar davlatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga, shu jumladan, hududlar orasidagi farqlarni kamaytirishga qaratilgan.

Iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda va kambag'allikni qisqartirishda soliq va moliyaviy imtiyozlar juda muhim rol o'ynaydi. Soliq siyosati va moliyaviy imtiyozlar tizimi, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Soliq imtiyozlari – bu davlat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, yengillashtirish va rag'batlantirish maqsadida taqdim etiladigan imtiyozlardir. Soliq siyosati mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga va ishbilarmonlik muhitining yaxshilanishiga bevosita ta'sir qiladi.

Soliq imtiyozlari turlari:

Soliq stavkalarining pasaytirilishi: Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun soliq stavkalarini kamaytirish, ayniqsa yangi boshlayotgan tadbirkorlar uchun yengillik yaratadi. Bu, ularga moliyaviy resurslarni sarmoya kiritish yoki ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltirish imkoniyatini beradi.

Soliq ta'tillari: Yangi tashkil etilgan kompaniyalarga yoki ma'lum bir sektorlar uchun soliq ta'tillari berilishi, ularning faoliyatini rivojlantirishga imkon yaratadi. Masalan, texnologiya yoki ekologik jihatdan toza sohalarida ishlovchi kompaniyalar uchun soliq imtiyozlari taklif etilishi mumkin.

Soliq to'lovlarining kechiktirilishi: Ba'zi hollarda, kompaniyalarga soliq to'lovlarini ma'lum muddatga kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati beriladi. Bu ularning naqd pul oqimini yaxshilashga yordam beradi, ayniqsa iqtisodiy inqiroz yoki pandemiya davrida.

Soliq imtiyozlari orqali innovatsiyalarni rag'batlantirish: Tadqiqotlar va rivojlanish (R&D) sohasida ishlovchi kompaniyalarga soliq imtiyozlari berish innovatsiyalarni rivojlantirish va yangi texnologiyalarni joriy etish, shu bilan birga, yuqori malakali ishchi kuchini rivojlantirish uchun kuchli rag'batlantiruvchi omil bo'lishi mumkin.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonning iqtisodiy siyosatida yoshlarni va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini, ayniqsa "Temir daftari"da ro'yxatga olingan fuqarolarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat tomonidan tadbirkorlikni rivojlantirish, ish o'rinlari yaratish va ijtimoiy himoyani kuchaytirish maqsadida bir qator soliq imtiyozlari va moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari joriy etilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar yoshlarni, shuningdek, "Temir daftari"da ro'yxatga olingan aholi uchun iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilgan. Oddiy

tadbirkorlar (ya'ni, soliq to'lovchilar uchun umumiy tartibdagi soliqlarni to'laydigan kompaniyalar) uchun kredit foiz stavkalari bozor sharoitlariga, banklar tomonidan belgilangan narxlar va moliyaviy resurslar asosida o'zgaradi. Ushbu foiz stavkalari tadbirkorning moliyaviy holati, kredit miqdori, muddatlari va bank bilan tuzilgan shartnoma shartlariga qarab farq qiladi. Odatda, umumiy foiz stavkalari quyidagi omillarga bog'liq:

- Foiz stavkasi: Bozor sharoitiga qarab foiz stavkasi 16% dan 25% gacha bo'lishi mumkin. Bu foiz stavkalarining turlari biznesning hajmi va kredit miqdoriga qarab farq qiladi.
- Kredit muddatlari: 1 yil va undan yuqori muddatlarga beriladigan kreditlar uchun foiz stavkasi odatda yuqori bo'ladi, lekin qisqa muddatli kreditlar uchun pastroq bo'lishi mumkin.
- Kredit miqdori: Katta miqdordagi kreditlar uchun foiz stavkalari odatda kamroq, kichik miqdordagi kreditlar uchun esa yuqori bo'lishi mumkin.

Bu holat, odatda, tijorat banklari tomonidan qo'yiladigan foiz stavkalariga asoslangan bo'lib, ular ko'pincha iqtisodiy o'sish, inflyatsiya darajasi va pul-kredit siyosatiga mos ravishda o'zgarib turadi.

Davlat, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, yosh tadbirkorlarni rag'batlantirish va ularning faoliyatini rivojlantirish uchun arzon va imtiyozli kreditlar taqdim etmoqda. Imtiyozli foiz stavkalari odatda quyidagi sharoitlarda taqdim etiladi:

a. Yosh tadbirkorlar uchun imtiyozli foiz stavkalari: Yoshlar (masalan, 18-30 yoshdagi tadbirkorlar) uchun davlat tomonidan arzon kreditlar va imtiyozli foiz stavkalari taklif etiladi. Bu, ularning bizneslarini boshlashga yordam berish va iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilgan. Imtiyozli foiz stavkalari quyidagicha bo'lishi mumkin:

Foiz stavkasi: 8% dan 15% gacha bo'lgan foiz stavkalari yosh tadbirkorlar uchun taklif etiladi. Bu, odatda, banklar tomonidan berilgan kreditlar uchun imtiyozli shartlar bo'lib, ularning bizneslarini muvaffaqiyatli boshlashlari uchun moliyaviy imkoniyat yaratadi.

Kredit muddatlari: Yosh tadbirkorlar uchun qisqa va uzoq muddatli kreditlar taqdim etilishi mumkin. Kreditlar 1 yildan 5 yilgacha bo'lgan muddatlar bilan beriladi.

b. Kichik va o'rta biznes uchun imtiyozli foiz stavkalari: Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun ham davlat tomonidan arzon kreditlar taqdim etiladi. Bu kreditlar, ayniqsa yangi boshlovchi kichik bizneslar uchun juda muhim. Imtiyozli foiz stavkalari odatda quyidagicha bo'ladi:

Foiz stavkasi: 10% dan 15% gacha bo'lgan foiz stavkalari taklif etiladi. Bu foizlar banklarning kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus dasturlari asosida belgilanadi.

Kredit muddatlari: 3-5 yil muddatga beriladigan kreditlar uchun foiz stavkalari arzonroq bo'ladi. Bu bizneslarni rivojlantirish va yangi ish o'rinlari yaratishga yordam beradi.

c. "Temir daftari"da ro'yxatga olingan fuqarolar uchun imtiyozli foiz stavkalari:

Ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar, ayniqsa "Temir daftari"da ro'yxatga olinganlar uchun ham imtiyozli kreditlar mavjud. Bu kreditlar, odatda, ularning biznes boshlashiga va o'zini ta'minlashiga yordam berishga qaratilgan:

Foiz stavkasi: 5% dan 10% gacha bo'lgan imtiyozli foiz stavkalari mavjud. Bu imtiyozlar, asosan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan aholi uchun arzon kreditlarni taqdim etishga yo'naltirilgan.

Kredit miqdori va muddatlari: Odatda, bu turdagi kreditlar kichik miqdorda beriladi (masalan, 50 million so'mgacha) va kredit muddatlari ham qisqa bo'lishi mumkin (1-3 yil).

Moliyaviy imtiyozlar – bu davlat yoki moliya institutlari tomonidan tadbirkorlik subyektlariga yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga taqdim etiladigan bevosita yoki bilvosita moliyaviy yengilliklar hisoblanadi. Moliyaviy imtiyozlar tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashda yana bir muhim vosita hisoblanadi. Ular kompaniyalar va startaplar uchun arzon va oson kirish mumkin bo'lgan moliyaviy resurslar taqdim etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy barqarorlikka erishish, kambag'allikni kamaytirish va tadbirkorlikni rivojlantirishda moliyaviy imtiyozlar va davlat ko'magining o'rni beqiyosdir. Moliyaviy imtiyozlar nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratish, balki aholining zaif qatlamlarini iqtisodiy faoliyatga jalb etish orqali ijtimoiy tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Bu imtiyozlarning asosiy shakllari mavjud bo'lib, bular:

- Imtiyozli kreditlar – past foizli, uzoq muddatli moliyalashtirish.
- Davlat subsidiyalari – ishlab chiqarish xarajatlari, texnika yoki xomashyo xaridini moliyalashtirish.
- Grantlar – startap va innovatsion loyihalarga beriladigan qaytarilmaydigan mablag'lar.
- Kafolatlar – davlat tomonidan beriladigan kreditlarni qaytarish kafolati.
- Soliq yengilliklari – tadbirkorlar uchun ayrim soliqlardan ozod qilish yoki stavkalarni pasaytirish.

O'zbekistonda amalda mavjud moliyaviy imtiyozlar mavjud bo'lib, ular so'nggi yillarda O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash, yoshlar va ayollar tadbirkorligini rag'batlantirish bo'yicha moliyaviy imtiyozlar tizimi shakllantirdi.

a. Yoshlar daftari doirasida:

- 33 mln so'mgacha past foizli kreditlar (7-10%).
- O'quv kurslari, uskunalar xaridi uchun subsidiya.

b. "Temir daftari" ishtirokchilari uchun:

- Biznes boshlash uchun kreditlar (50 mln so'mgacha,

10–14%).

- Uskuna, chorva, issiqxona xarajatlari uchun grant va subsidiyalar.

c. Ayollar daftari orqali:

- 33 mln so'mgacha subsidiya va 12% gacha bo'lgan kreditlar.

d. Kichik biznes va fermer xo'jaliklari:

- Agrobank, Mikroreditbank orqali imtiyozli kreditlar.

- Kafolatlar va foiz to'lovining bir qismini davlat qoplash tizimi.

Moliyaviy imtiyozlar orqali tadbirkorlar bir qator yengilliklarga erishmoqda. Davlat tomonidan taqdim etilgan arzon kreditlar yoki subsidiyalar kompaniyalarga o'z bizneslarini rivojlantirish yoki yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishga

investitsiya qilish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni taqdim etadi. Bu, ayniqsa kichik va o'rta biznes uchun muhim ahamiyatga ega. Bu imtiyozlar yangi boshlayotgan kompaniyalar yoki innovatsion bizneslar uchun grantlar berilishi, ularga o'z faoliyatini boshlash yoki yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan mablag'ni topish imkoniyatini ham yaratdi. Grantlar, o'z navbatida, biznesning rivojlanishiga yordam beradi va ularning daromadlarini tezroq oshirish imkonini beradi. Yirik investitsiya fondlari yoki davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalar orqali tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mumkin. Bu, ayniqsa infratuzilma yoki ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Quyidagi jadvalda imtiyozli kredit foiz stavkalari va oddiy kredit foiz stavkalari taqqoslanishi keltirilgan.

1-jadval

Kredit foiz stavkalari

TOIFA	ODDIY KREDIT STAVKASI	IMTIYOZLI KREDIT STAVKASI
Oddiy tadbirkor	20–25%	—
Yosh tadbirkor	—	7–10%
Temir daftari ishtirokchisi	—	10–14%
Ayollar (biznes uchun)	—	12%
Startaplar	—	0% (grant) – 8%

Moliyaviy imtiyozlar tadbirkorlikni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Arzon kreditlar va subsidiya dasturlari kichik biznesning faolligini oshirish, yangi startaplarning rivojlanishiga yordam beradi va iqtisodiy innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Moliyaviy resurslar bilan qo'llab-quvvatlanadigan bizneslar, o'z faoliyatlarini kengaytirish va yangi bozorlarga kirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Soliq va moliyaviy imtiyozlar tizimining samarali ishlashi

Soliq va moliyaviy imtiyozlar tizimi davlatning iqtisodiy siyosatiga mos ravishda ishlab chiqilishi kerak. Ushbu tizimning samarali joriy etilishi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, yangi ish o'rinlari yaratish, hamda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Soliq va moliyaviy imtiyozlar tizimining samarali ishlashining asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiy faollikning oshishi

Soliq va moliyaviy imtiyozlar, ayniqsa kichik va o'rta biznes vakillari uchun, iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi. Ular biznes boshlash va uni rivojlantirishda yengilliklar yaratadi. O'zbekiston hukumati tomonidan tadbirkorlar uchun taqdim etiladigan soliq imtiyozlari va kredit foiz stavkalarining kamaytirilishi, yangi bizneslarni yaratishda

qo'llab-quvvatlashning muhim omilidir. Imtiyozli kreditlar va subsidiyalar orqali ko'plab yangi startaplar va kichik korxonalar ochildi, natijada iqtisodiy faollik oshdi va raqobatbardoshlik kuchaydi.

2. Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash

Soliq va moliyaviy imtiyozlar kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga katta yordam beradi. Soliq imtiyozlari orqali bizneslar o'z daromadlarini ko'paytirish, yangi ish o'rinlari yaratish va ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish imkoniyatiga ega. Imtiyozli kreditlar orqali yangi texnika va asbob-uskunalar sotib olish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va mahsulotlarni diversifikatsiya qilish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Soliq imtiyozlari va moliyaviy qo'llab-quvvatlash kambag'alli kamaytirishga xizmat qilmoqda. Kam ta'minlangan aholi, yoshlar va ayollar uchun ajratilgan imtiyozlar orqali o'zini o'zi band qilish imkoniyati taqdim etilmoqda. "Temir daftari" va "Yoshlar daftari" orqali o'z biznesini boshlayotgan fuqarolarga 50 million so'mgacha bo'lgan imtiyozli kreditlar taqdim etilmoqda, bu esa kambag'allikni kamaytirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Soliq va moliyaviy imtiyozlar tizimi ish o'rinlari yaratishda

va ishsizlik darajasini pasaytirishda ham katta rol o'ynaydi. Yoshlar, ayollar va ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar uchun ajratilgan kreditlar va subsidiyalar orqali yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. Bu, o'z navbatida, ish o'rinlari yaratishga, ijtimoiy muammolarni hal etishga va ish bilan ta'minlash darajasini oshirishga olib kelmoqda. Bu esa kambag'allik darajasi qisqarishiga katta hissa qo'shmoqda.

Soliq va moliyaviy imtiyozlar innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashda ham muhim o'rin tutadi. Yangi texnologiyalar va innovatsion loyihalar uchun berilgan grantlar va subsidiyalar innovatsion g'oyalarni amalga oshirishga yordam beradi. Masalan, startaplar uchun ajratiladigan grantlar va imtiyozli kreditlar bu sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar uchun jiddiy rag'bat bo'lmoqda.

Bu loyihaning statistik tahliliga keladigan bo'lsak,

- Yangi startaplar sonining oshishiga erishildi. 2023-yilda startaplar soni 20% ga oshgan, bu esa yoshlar orasida tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam berdi.
- Kichik biznesni rivojlantirishga doir davlat dasturlari orqali ajratilgan 5 trillion so'mdan ortiq imtiyozli kreditlar va grantlar ko'plab yangi korxonalar ochilishini ta'minladi.
- 2023-yilda imtiyozli kreditlar yordamida 100,000 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

- Yoshlar va ayollar daftari doirasida 500,000 dan ortiq yosh tadbirkorlar imtiyozli kreditlar va grantlardan foydalangan.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida o'rtacha hisoblangan oylik ish haqining (yillik) o'zgarishi va kambag'allik darajasi-ning pasayotganligini www.stat.uz saytidan olingan statistik ma'lumotlar asosida yaratilgan quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Bu jadvaldan shuni ko'ramizki, Respublikamizda qo'llanilayotgan chora tadbirlar natijasida Respublikamiz miqyosida o'rtacha hisoblangan oylik ish haqi 2019-yil 1946778,3 so'mni tashkil etsa, 2023-yilga kelib 3799613,5 so'mni ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda kambag'allik darajasi asta-sekin kamaymoqda. Misol uchun, 2020-yilda kambag'allik darajasi 17 foiz atrofida bo'lgan bo'lsa, 2023-yil oxiriga kelib bu ko'rsatkich 11-12 foizgacha tushgani qayd etilgan. Bu natijalarga erishishda yuqorida ta'kidlangan imtiyozlar va davlat dasturlarining hissasi katta bo'ldi. Shuningdek, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish borasida olib borilayotgan islohotlarni ijobiy baholamoqda.

2-jadval

O'rtacha hisoblangan oylik ish haqining (yillik, so'mda)

HUDUDLAR	2019	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	1946778,3	2227141,2	2662002,8	3204301,4	3799613,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1851523,7	2059642,5	2378721,9	2787221,6	3264159,2
Andijon viloyati	1692686,8	1939862,6	2248201,4	2804453,9	3260316,1
Buxoro viloyati	1775484,9	2100782,7	2327166,7	2731194,1	3167804,7
Jizzax viloyati	1591105,7	1820344,1	2113186,7	2529666,9	2944351,6
Qashqadaryo viloyati	1720268,9	1834526,5	2154379,9	2590142,9	2940211,7
Navoiy viloyati	2448655,0	2867899,1	3733342,4	4283738,2	5003204,7
Namangan viloyati	1560524,0	1704100,0	1987599,8	2540008,6	2786310,6
Samarqand viloyati	1557301,6	1733821,7	2015109,2	2450813,1	2853458,5
Surxondaryo viloyati	1609691,4	1825793,0	2082977,2	2530158,6	2958415,0
Sirdaryo viloyati	1724236,7	1949748,6	2265301,7	2656512,4	3058493,4
Toshkent viloyati	2066556,0	2280326,7	2789225,2	3207582,4	3673115,7
Farg'ona viloyati	1605046,7	1781821,0	2054570,7	2538459,1	2853148,9
Xorazm viloyati	1736413,7	1949592,1	2253991,9	2690661,5	3141988,7

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kambag'allikni qisqartirish respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyozlar va imkoniyatlar nafaqat kambag'allikni kamaytirishga, balki fuqarolarning farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Kelgusida bu boradagi islohotlarning davom ettirilishi, aholining iqtisodiy faolligini oshirish orqali barqaror taraqqiyotga erishishda muhim omil bo'lib qoladi. Kambag'allikni qisqartirishda quyidagi takliflarni ham inobatga olish kerak:

1. Ijtimoiy yordamni manzilli va samarali qilish uchun "raqamli kuzatuv tizimi"ni kengaytirish:

Yordamga muhtoj oilalarni aniqlashda sun'iy intellekt, mobil ilovalar va elektron platformalardan foydalanish orqali resurslar noto'g'ri foydalanishining oldi olinadi va manzillilik ta'minlanadi.

2. Tadbirkorlikni boshlash uchun berilayotgan kreditlar va subsidiya ajratish mexanizmlarini soddalashtirish: Hujjatlar sonini kamaytirish, onlayn ariza topshirish tizimini yaratish orqali ko'proq ehtiyojmand fuqarolar ushbu imkoniyatlardan foydalanishlari mumkin.

3. Mahalliy darajadagi kambag'allikni qisqartirish dasturlarini kuchaytirish:

Har bir mahallada aholi daromadlari bo'yicha aniq statistik ma'lumotlar asosida mahalla byudjeti shakllantirilib, kam ta'minlangan oilalar bilan manzilli ishlash yo'lga qo'yilishi zarur.

4. Kasb-hunar o'rganishni rag'batlantirish uchun stipendiyalar joriy etish:

O'quv kurslariga qatnashayotgan ishsiz fuqarolarga vaqtinchalik stipendiya to'lash orqali ularning o'qishga bo'lgan qiziqishi va qatnashuv darajasini oshirish mumkin.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. **Turaboyeva Kimiyoxon O'razbekovna Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Raqamli Iqtisodiyot kafedrasini mudiri, i.f.n, dotsent / Институт предпринимательства и педагогики Денова Заведующий кафедрой цифровой экономики Кандидат наук, доцент Турабоева Кимийохон Уразбековна / Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy Head of the Department of Digital Economics PhD, Associate Professor Turaboeva Kimiyokhon Urazbekovna**

► k.turaboyeva1371@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0002-0797-3086>

2. **Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Iqtisodiyot yo'nalishi 4-kurs talabasi Boymurodova Xosiyat Bobokhon qizi / Институт предпринимательства и педагогики им. Денова студент 4 курса экономического факультета Боймуродова Хосият Бобохон кызы / Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy 4th year student of Economics Boymurodova Khosiyat Bobokhon qizi**

► hosiyat064@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0009-9095-2438>

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Abdurahmonova, G. M. (2022). Kambag'allikni kamaytirishda ijtimoiy himoya tizimining roli. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, (1), 45–52.
 - [2]. Halilov, M. A. (2020). Ijtimoiy siyosatning rivojlanishida manzilli yordam mexanizmlari. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar, (3), 22–28.
 - [3]. Jahon banki. (2022). Poverty and Shared Prosperity 2022: Correcting Course. World Bank Group. <https://www.worldbank.org>
 - [4]. Markaziy bank. (2021–2023). Aholining moliyaviy savodxonligi va kredit siyosati bo'yicha tahliliy hisobotlar. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. <https://www.cbu.uz>
 - [5]. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. (2023). Aholini band qilish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlar. <https://www.mehnat.uz>
 - [6]. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2023). 2023-yil davlat byudjeti ijrosi to'g'risida hisobot. <https://www.mf.uz>
 - [7]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021). PQ–4986-son Farmon: Kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida. <https://lex.uz>
 - [8]. Statistika agentligi. (2023). O'zbekistonda kambag'allik darajasi bo'yicha yillik statistik to'plam. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi. <https://stat.uz>
 - [9]. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. "Aholini ish bilan ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish dasturlari" <https://www.mehnat.uz>
 - [10]. Markaziy bankning Aholi moliyaviy savodxonligi bo'yicha maxsus hisobotlari (2021–2023). <https://www.cbu.uz>
- Qozog'iston "eGov" raqamli xizmatlar portalini — ijtimoiy yordam tizimlari tajribasi. <https://egov.kz>